QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.219

MAKTABGACHA TA’LIMDA FASILITATORNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MUALLIFLIK MODELI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA INTEGRATSIYASI

Esonova Maloxat Akilovna
Qo’qon davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti

Annotatsiya Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Milliy va xorijiy tajribalar qiyosiy o’rganilib, fasilitatorning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan mualliflik modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, fasilitator, kasbiy kompetentlik, pedagogik faoliyat, mualliflik modeli, xorijiy tajriba.

Аннотация В статье анализируюця вопросы развития профессиональной компетентности педагога-фасилитатора в дошкольных образовательных организациях. На основе сравнительного изучения отечественного и зарубежного опыта разработана авторская модель совершенствования профессиональной компетентности фасилитатора.

Ключевые слова: дошкольное образование, фасилитатор, профессиональная компетентность, педагогическая деятельность, авторская модель, зарубежный опыт.

Annotation The article analyzes the development of professional competence of facilitator educators in preschool institutions. Based on a comparative study of national and international practices, an author-developed model for improving facilitators’ professional competence is proposed.

Keywords: preschool education, facilitator, professional competence, pedagogical activity, author-developed model, international experience.

KIRISH

Jahonda maktabgacha ta’lim tizimida bolaning shaxsiy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish, mustaqil fikrlashini qo’llab-quvvatlash, ijtimoiy faolligini oshirish va ta’lim jarayonidagi ishtirokini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tobora kengayib bormoqda. Bu jarayon pedagogning an’anaviy bilim beruvchi vazifasidan bola faoliyatini tashkil etuvchi, uning qiziqishlarini qo’llab-quvvatlovchi va rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratuvchi fasilitator vazifasiga o’tishini taqozo etmoqda.

Fasilitator tushunchasi pedagogikada ta’lim oluvchining mustaqil faoliyatini yengillashtiruvchi, hamkorlik muhitini shakllantiruvchi va shaxsiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlovchi mutaxassis faoliyati bilan bog’liq. Maktabgacha ta’limda fasilitator pedagog bolaga tayyor bilimni taqdim etish bilan cheklanmaydi, balki uning kuzatishi, savol berishi, izlanishi, tajriba o’tkazishi va mustaqil qaror qabul qilishi uchun imkoniyat yaratadi.

O’zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentyabrdagi PF–152-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 8 iyuldagi 423-son qarori maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy faoliyatiga qo’yiladigan talablarni takomillashtirishda muhim me’yoriy asos bo’lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’limda fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmunini nazariy jihatdan asoslash, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish hamda uni takomillashtirishga qaratilgan mualliflik modelini taklif etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotida fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish xususiyatlarini yoritish, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish hamda uni takomillashtirishga qaratilgan mualliflik modelini ishlab chiqishdan iborat.

METODOLOGIK ASOSLAR

Maqolaning metodologik asoslarini shaxsga yo’naltirilgan, kompetentsiyaviy, tizimli va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar fasilitator pedagogning kasbiy faoliyatini bola shaxsini hurmat qilish, uning individual imkoniyatlarini hisobga olish va mustaqil rivojlanishini qo’llab-quvvatlash nuqtai nazaridan o’rganish imkonini beradi.

Maqolani tayyorlash jarayonida me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, ilmiy adabiyotlarni o’rganish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va nazariy modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Mazkur metodlar asosida fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligi mazmuni aniqlashtirildi, Finlyandiya va Buyuk Britaniya tajribasining ayrim jihatlari O’zbekiston maktabgacha ta’lim tizimi bilan qiyoslandi hamda mualliflik modeli taklif etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fasilitator pedagogning kasbiy faoliyati mazmuni

Fasilitator pedagog — bolaning mustaqil faoliyatini qo’llab-quvvatlaydigan, uning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga oladigan, o’zaro hamkorlik va ijodiy izlanishga asoslangan rivojlantiruvchi muhitni tashkil etuvchi mutaxassisdir.

Maktabgacha ta’limda fasilitatsiya bolaga tayyor yechimni berish emas, balki uning o’zi yechim topishi uchun pedagogik sharoit yaratishni anglatadi. Bunda pedagog bolaning harakatlarini kuzatadi, yo’naltiruvchi savollar beradi, zarur hollarda yordam ko’rsatadi va mustaqil faoliyatini rag’batlantiradi.

An’anaviy pedagogik yondashuv bilan fasilitatorlik yondashuvi o’rtasidagi farq quyidagi jadvalda ifodalangan.

1-jadval. An’anaviy pedagogik yondashuv va fasilitatorlik yondashuvining qiyosiy tahlili

Mezonlar	An’anaviy yondashuv	Fasilitatorlik yondashuvi
Pedagogning vazifasi	Bilim va ko’rsatmalar berish	Bolaning faoliyatini qo’llab-quvvatlash
Bolaning ishtiroki	Ko’proq tinglovchi	Faol ishtirokchi
Ta’lim jarayoni	Pedagog boshqaruviga asoslanadi	Hamkorlik va mustaqil faoliyatga asoslanadi
Muammoni hal etish	Tayyor yechim taqdim etiladi	Bola yechimni mustaqil izlaydi
Savol berish	Pedagog savol beradi	Bola ham savol beradi va fikr bildiradi
Baholash	Asosan natijaga e’tibor qaratiladi	Jarayon, harakat va individual rivojlanish hisobga olinadi
Muhit	Oldindan belgilangan faoliyat	Tanlov va izlanish imkonini beruvchi muhit

Jadval tahlilidan ko’rinadiki, fasilitatorlik yondashuvida pedagogning roli o’zgarishi bilan birga bolaning ta’lim jarayonidagi maqomi ham faollashadi. Bola faqat pedagog ko’rsatmasini bajaruvchi emas, balki o’z faoliyatini tashkil etishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida namoyon bo’ladi.

Fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligi tarkibiy qismlari

Fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligi bir nechta o’zaro bog’liq tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Ularning har biri pedagogning bolalar bilan samarali muloqot qilishi, ta’lim jarayonini tashkil etishi va o’z kasbiy faoliyatini takomillashtirishida muhim o’rin tutadi.

2-jadval. Fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligi tarkibiy qismlari

Kompetentsiya turi	Mazmuni	Kasbiy faoliyatda namoyon bo’lishi
SHaxsiy kompetentsiya	Hamdardlik, sabr-toqat, mas’uliyat, bola shaxsini hurmat qilish	Har bir bolaga individual munosabatda bo’lish
Kommunikativ kompetentsiya	Samarali muloqot, tinglash, savol berish, fikr almashish	Bola va ota-onalar bilan hamkorlik qilish
Metodik kompetentsiya	Zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni bilish	O’yin, loyiha, muammoli vaziyat va izlanish faoliyatini tashkil etish
Inklyuziv kompetentsiya	Bolalarning individual va ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olish	Har bir bola uchun teng ishtirok imkoniyatini yaratish
Tadqiqotchilik kompetentsiyasi	Kuzatish, ma’lumot to’plash, tahlil qilish va xulosa chiqarish	Bolaning rivojlanishini kuzatish va faoliyatni takomillashtirish
Refleksiv kompetentsiya	O’z faoliyatini tahlil qilish va baholash	Pedagogik faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash
Raqamli kompetentsiya	Raqamli vositalardan maqsadli va xavfsiz foydalanish	Ta’lim jarayonini rejalashtirish va vizual materiallar tayyorlash

Ushbu kompetentsiyalar o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, fasilitator pedagogning kasbiy salohiyatini yaxlit holda ifodalaydi. Masalan, kommunikativ kompetentsiya bola bilan ishonchli munosabat o’rnatishga xizmat qilsa, metodik kompetentsiya uning qiziqishlariga mos faoliyatni tashkil etish imkonini beradi. Refleksiv va tadqiqotchilik kompetentsiyalari esa pedagogning o’z faoliyatini muntazam takomillashtirishiga yordam beradi.

Xorijiy tajriba va milliy yondashuvning qiyosiy tahlili

Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim jarayonida bolaning mustaqilligi, tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, Finlyandiya va Buyuk Britaniya tajribasida pedagogning bola faoliyatini qo’llab-quvvatlovchi roli muhim o’rin egallaydi.

Finlyandiya maktabgacha ta’lim tizimida bolaning qiziqishi, o’yin orqali o’rganishi, mustaqil tanlovi va farovonligi ustuvor hisoblanadi. Pedagog bolalarning individual ehtiyojlarini kuzatib, ularning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Buyuk Britaniyadagi EYFS (Early Years Foundation Stage — ilk yosh davri ta’lim bosqichi) yondashuvida bolaning rivojlanishi va ta’lim olishi o’zaro bog’liq jarayon sifatida qaraladi. Pedagog bolalarning qiziqishlarini kuzatish, o’yin faoliyatini tashkil etish va rivojlanish natijalarini qayd etish orqali ta’lim jarayonini takomillashtiradi.

O’zbekistonda esa «Ilk qadam» davlat o’quv dasturi bolaning har tomonlama rivojlanishi, kompetentsiyalarini shakllantirish, o’yin asosida ta’lim berish va rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga yo’naltirilgan. Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 8 iyuldagi 423-son qarori bilan tasdiqlangan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti pedagogning shaxsiy fazilatlari, kasbiy bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablarni belgilaydi.

3-jadval. Finlyandiya, Buyuk Britaniya va O’zbekistonda fasilitatorlik yondashuvining qiyosiy tahlili

Qiyosiy mezon	**Finlyandiya**	**Buyuk Britaniya**	**O’zbekiston**
Asosiy yondashuv	Bolaga yo’naltirilgan ta’lim	EYFS asosida rivojlantirish	«Ilk qadam» dasturi asosida rivojlantirish
Pedagogning roli	Bolaning qiziqishi va tashabbusini qo’llab-quvvatlovchi	O’yin va rivojlanishni tashkil etuvchi	Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi va yo’naltiruvchi
Ta’lim usuli	O’yin, kuzatish, tajriba	O’yin, muloqot, maqsadli faoliyat	O’yin, amaliy faoliyat, kuzatish
Bolaning ishtiroki	Mustaqil tanlov va faol ishtirok	Faol izlanish va muloqot	Faol ishtirok va kompetentsiyalarni rivojlantirish
Rivojlanishni kuzatish	Individual rivojlanishni qo’llab-quvvatlash	Kuzatish va rivojlanishni qayd etish	Bolaning rivojlanishini muntazam kuzatish
Pedagogik muhit	Erkin va tabiiy rivojlantiruvchi muhit	O’yin va izlanishga mos muhit	Rivojlantiruvchi ta’lim muhiti

Qiyosiy tahlil shuni ko’rsatadiki, uchala mamlakatda ham bolaning faol ishtirokini ta’minlash, individual rivojlanishini qo’llab-quvvatlash va pedagogik muhitni maqsadli tashkil etish muhim hisoblanadi. Biroq har bir mamlakatda bu vazifalar milliy ta’lim siyosati va pedagogik an’analarga muvofiq amalga oshiriladi.

O’zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tajribani to’g’ridan-to’g’ri ko’chirish emas, balki uni milliy dasturlar, kasbiy standart va mahalliy ta’lim sharoitlari bilan uyg’unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mualliflik modeli

Yuqoridagi nazariy tahlil, me’yoriy asoslar va xorijiy tajribalarni qiyosiy o’rganish natijasida maktabgacha ta’lim tashkilotida fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan mualliflik modeli taklif etildi.

Modelning asosiy g’oyasi pedagogning kasbiy bilim va ko’nikmalarini bola shaxsini qo’llab-quvvatlash, mustaqil faoliyatni tashkil etish, hamkorlik muhitini yaratish va o’z kasbiy faoliyatini tahlil qilish bilan uyg’unlashtirishdan iborat.

4-jadval. Fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mualliflik modeli

Model tarkibiy qismi	**Asosiy mazmuni**	**Amalga oshirish yo’nalishi**
Maqsadli komponent	Fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish maqsadini belgilash	Kasbiy ehtiyoj va rivojlanish maqsadlarini aniqlash
Mazmuniy komponent	Zarur bilim, ko’nikma va kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish	Fasilitatsiya, bola psixologiyasi, inklyuziv ta’lim va zamonaviy metodlarni o’zlashtirish
Jarayoniy komponent	Kasbiy kompetentsiyalarni amaliy faoliyatda rivojlantirish	Trening, mahorat darsi, o’zaro tajriba almashish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish
Muhit komponenti	Kasbiy rivojlanish va hamkorlik uchun qulay sharoit yaratish	Rivojlantiruvchi muhit, jamoaviy hamkorlik va raqamli resurslardan foydalanish
Natijaviy komponent	Kasbiy kompetentlikning rivojlanishini aniqlash	Pedagogik faoliyatni tahlil qilish, o’z-o’zini baholash va kasbiy rivojlanishni rejalashtirish

Taklif etilayotgan model beshta o’zaro bog’liq komponentdan tashkil topgan bo’lib, ularning har biri pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida muayyan vazifani bajaradi.

Maqsadli komponent kasbiy rivojlanishning yo’nalishini belgilaydi. Mazmuniy komponent fasilitator pedagog egallashi zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalarni qamrab oladi. Jarayoniy komponent nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo’llashga yo’naltiriladi. Muhit komponenti pedagogning kasbiy o’sishi uchun zarur shart-sharoitlarni belgilaydi. Natijaviy komponent esa erishilgan o’zgarishlarni tahlil qilish va keyingi rivojlanish vazifalarini belgilash imkonini beradi.

Mualliflik modelida pedagogning kasbiy rivojlanishi bir martalik jarayon emas, balki uzluksiz takomillashib boruvchi tizim sifatida qaraladi. Bunda o’z-o’zini baholash, tajriba almashish, bolalar faoliyatini kuzatish va pedagogik faoliyatni refleksiv tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur modelь nazariy-metodologik taklif sifatida ishlab chiqilgan bo’lib, uni maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining malakasini oshirish, kasbiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirish va oliy ta’limda bo’lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarini tayyorlash jarayonida qo’llash mumkin.

XULOSA

Maktabgacha ta’limda fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasini nazariy tahlil qilish va milliy hamda xorijiy tajribalarni qiyosiy o’rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy maktabgacha ta’limda pedagogning vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. U bolaning mustaqil faoliyatini qo’llab-quvvatlovchi, qiziqishlarini rivojlantiruvchi va hamkorlik muhitini yaratuvchi fasilitator sifatida ham faoliyat olib borishi zarur.
2. Fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligi shaxsiy, kommunikativ, metodik, inklyuziv, tadqiqotchilik, refleksiv va raqamli kompetentsiyalar birligi asosida shakllanadi.
3. Finlyandiya va Buyuk Britaniya tajribasi bolaning mustaqilligi, o’yin orqali o’rganishi, individual rivojlanishi va pedagogik kuzatuvning ahamiyatini ko’rsatadi. Ushbu tajribalarni milliy ta’lim mazmuniga moslashtirish maktabgacha ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.
4. O’zbekistonda «Ilk qadam» davlat o’quv dasturi va maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti fasilitatorlik yondashuvini rivojlantirish uchun muhim me’yoriy va metodik asos bo’lib xizmat qiladi.
5. Taklif etilgan mualliflik modeli maqsadli, mazmuniy, jarayoniy, muhit va natijaviy komponentlardan iborat bo’lib, fasilitator pedagogning kasbiy kompetentligini tizimli rivojlantirishga yo’naltirilgan.
6. Modeldan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini tashkil etish, malaka oshirish mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda nazariy asos sifatida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi O’RQ–595-son «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida»gi Qonuni.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentyabrdagi PF–152-son «Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi Farmoni.
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 8 iyuldagi 423-son «Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to’g’risida»gi qarori.
4. «Ilk qadam» maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o’quv dasturi. – Toshkent.
5. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
6. OECD. Starting Strong: Early Childhood Education and Care. – Paris: OECD Publishing.
7. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum for Early Childhood Education and Care. – Helsinki.
8. Department for Education. Statutory Framework for the Early Years Foundation Stage. – London.
9. Rogers, C. R. Freedom to Learn. – Columbus: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969.

10. Baxtiyarovna, Karimova Shoira. "MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF TEACHERS-EMPLOYEES OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036* 11.11 (2022): 465-467.

11. Shoira, Karimova. "PEDAGOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM IN PRESCHOOL CHILDREN." *Yosh Tadqiqotchi Jurnali* 1.5 (2022): 416-421.

12. Каримова, Ш. Б. "ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ЎЙИНЛАР БОЛАЛАРДА МИЛЛИЙ ҒУРУР ҲИССИНИ ТАРБИЯЛАШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА." *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL*

13. Akilovna, Esonova Malohat. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI VA AQLIY TARBIYA VAZIFALARI." *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference*. No. 5. 2023.

14. Эсонова, М. А. "Особенности развития речи детей младшего дошкольного возраста." *Экономика и социум* 3-1 (118) (2024): 1086-1089.

15. Уринбоевна, Умарова Зулхумор, Дехканов Богодир Бурханович и Якубджонова Ферузахон Исмаиловна. «Новые технологии развития силовых качеств молодежи». *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ И МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ISSN: 2277-3630 Импакт-фактор: 8,036* 11.11 (2022): 220-224.

16. Umarova, Z. U., and A. A. Umarov. "Scientific and Methodological Fundamentals of Formation of Basic Elements in Wrestlers (Uzbek Kurash)." *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development* 3.3 (2021): 149-155.

17. Jumanovna, Toshmatova Zamira. "Features of Mathematical Development in Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036* 11.07 (2022): 117-119.

18. Jumanovna, Toshmatova Zamira. "Organizational And Pedagogical Characteristics Of Preschool Education System Abroad." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 538-541.

19. Zunnunova, N. "CASES THAT NEGATIVELY AFFECT THE PREPARATION OF CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.5 (2023): 1071-1076.

20. Zunnunova, N. "PRIORITIES FOR PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.5 (2023): 1046-1050.

21. Зунунова, Н. "НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА". *ОБЗОР АЗИАТСКО-ТИХООКЕАНСКОГО ЖУРНАЛА МАРКЕТИНГА И МЕНЕДЖМЕНТА ISSN: 2319-2836 Импакт-фактор: 8.071* 12.10 (2023): 91-98.